

## REZERVDAgi VA ZAHIRADAGI OFISERLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY YONDASHUV VA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

**Xudaynazarov Xasan Nurmatovich**

*Angren shahar I-son politexnikumi*

*"Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik"  
fani katta uqituvchisi.*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada rezervdagi va zahiradagi ofiserlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy yondashuv va milliy qadriyatlardan foydalanish masalalariga oid ilmiy yondashuvlar yoritilgan. Maqola asosan rezervdagi va zahiradagi ofiserlarni tayyorlaydigan OTMning harbiy ta'lim fakultetlariga mo'ljallangan.

**Tayanch iboralar:** Vatanparvarlik, tarbiya, tamoyil, xususiyat, individuallik, ma'naviy-ma'rifiy, samaradorlik, sharoit, taraqqiyot.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy islohotlar ta'lim tizimini ham tubdan yangilash, uni zamon talablari darajasiga ko'tarishni ustuvor vazifa etib belgiladi.

O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zahasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-son qarori bugungi kunda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilayotganligi haqida.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga, xalqlarning madaniyatiga va o'zligiga bo'lgan tahdidlar, yod g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizasiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam bo'lib qolayotganligi sababli bu yo'nalishda qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan ekanligi hamda yuksak intellektual salohiyatga, zamonaviy fikrlash hamda dunyoqarashga ega, davlatimiz manfaatlari va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyor bo'lgan har tomonlama kamol topgan, jismonan sog'lom va ma'naviy etuk yosh avlodni tarbiyalash tizimini yaratishga qaratilgan davlat siyosatini faol va izchil amalga oshirishni ta'minlash maqsadida qator ustivor vazifalar ko'rsatib berdi.

Bugungi kunda bakalavr-talabalar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat taraqqiyotida eng qadimgi davrlardan boshlab yosh avlodni harbiy-jismoniy tayyorlashga katta e'tibor berib kelingan.

Ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida bolalarni tarbiyalagan. Bu jarayonda bolalar o‘zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo‘shilib ketib, hayot kechirish va mehnat qilishga o‘rgangan. Ular og‘ir sharoitlarda erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi ishlarni bajargan. Hech qaerda yozilmagan odatlar va an‘analarga ko‘ra, yosh bolalar keksalar huzurida hayot tajribasiga ega bo‘lganlar. Bolalar jamoa, enaga yoki murabbiylarda ma‘lum tayyorgarlikdan so‘ng sinovlardan o‘tib, amaliy faoliyatda ishtirok eta boshlaganlar. Ana shu an‘ana, ya‘ni bolalarni ma‘lum yoshgacha enaga va murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha, hatto hozirgi kunda ham davom etmoqda. Urug‘chilik jamoasi bosqichida esa bolalar mehnati, faoliyati kengaya boradi. Asta-sekin o‘g‘il bolalarga o‘q-yoy otish, nayzadan foydalanish, otda yurish o‘rgatila boshlandi. Ularni tarbiyalash, harbiy mahoratga o‘rgatish maxsus murabbiylarga topshirilardi. Chunki qabilalardagi erkaklarning barchasi harbiy-jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishlari shart edi. Asta-sekin bunday mashqlar bilan shug‘ullanish tobora harbiy toifaga xos imtiyozlarning biriga aylanadi. Qurol-yarog‘ va harbiy mashqlarning rivojlanib borishi natijasida turli mamlakatlarda o‘q otish, nayza sanchish, ot minish va boshqa harbiy mashqlarni o‘rgatadigan mutaxassis ustozlar paydo bo‘ladi.

Bizgacha etib kelgan qahramonlik eposlarida vatan va erkinlikka intilish, yurti va qabilasi uchun jonini fido etish, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg‘ulari ifodalanadi. To‘maris, Shiroq kabi jasur vatanparvarlar, buyuk qahramonlar Rustam, Siyovush, Alpomish haqidagi epik asarlarda tasvirlangan qahramonlar vatanini sevadi. Buyuk burch hissi, vatan va xalqi uchun o‘z jonini qurbon qilish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish ularning asosiy xislatlaridir. Xalq qahramonlarining asosiy fazilatlarini jasurlik va mardlik bo‘lgan.

Qadimgi ajdodlarimiz insondagi jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylikni bag‘oyat qadrlaganlar. Ular yashagan sharoitlar buni taqozo etgan. VI asrda yozib qoldirilgan Urxun-Enisey yodgorliklarida ham bahodir hoqonlar va alplarning jangovarlik faoliyati, turmush tarzi, xislatlari orqali vatanparvarlik, birdamlik ittifoq bo‘lib yashash uchun kurash, mardlik, jasorat kabi ezgu g‘oyalar ilgari surilgan.

Rezervdagi va zahiradagi ofiserlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy va qadriyatli (aksiologik) yondashuv o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda talabalarning pedagogik va psixologik jihatdan ular faoliyatining xarakteri, tafakkuri xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini, yoshiga xos rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishni talab etadi. Shu bilan birga harbiy tayyorgarlikda harbiy mahoratni takomillashtirib borish uchun bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lish, dunyoqarashning kengligi, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish, g‘oyaviy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni egallash, jangovar ruhiy holatga ega bo‘lish, harakatlarida onglilik, to‘g‘rilik, aniqlik, harbiy texnikani qo‘llashda zukkolik, zehnilik, ijodkorlik xislatlarini tarkib toptirishda qobiliyati, temperamenti, xarakterli xususiyatlarini hisobga olish, hissiy-irodaviy sobitligini mustahkamlashga, jipslashib harakat qilishga undash kabilarda pedagogik-psixologik jihatdan to‘g‘ri yondashishda qadriyatlar katta imkoniyatlar yaratadi. Lekin har bir yosh bosqichida shaxsni rivojlanish imkoniyatlari mavjud bo‘lib,

ularga jismoniy, aqliy, axloqiy ta'sir etishda ana shu imkoniyatlarni hisobga olish zarur bo'ladi. Chunki insonning rivojlanishida umumiylik bilan birga o'ziga xoslik hamma vaqt namoyon bo'ladi. Umumiylik ma'lum yoshga taalluqli bo'lgan xususiyatlarga xos bo'lsa, xususiylik biror shaxsning faqatgina o'ziga xos belgilar, xususiyatlari boshqalardan farq qiladi. Ana shu o'ziga xoslik individuallik deb ataladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ta'lim berishda individual yondashuv asosiy tamoyillardan hisoblanadi. Talabalik davri uchun asosiy xususiyatlardan biri ularning kamolga etishining jadal rivojlanishidir. Mazkur davrda talaba ijtimoiy kamolotga etishi uchun zarur aqliy qobiliyatga ega bo'lishi, ijtimoiy hayotga tayyorligi muhim hisoblanadi. “Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko'rsatkichlari o'rta ma'lumotlilik, jamoatchilik topshirig'i, mehnatda faollik ko'rsatish, qonunlar oldida javobgarlik, mutaxassis bo'lish imkoniyati, unga intilish tuyg'usi, irodaviy zo'r berish, yosh otalik va onalik burchi, jamoatchilik vazifasini o'tash, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan shug'ullanish, bo'sh vaqtni tashkil eta olish, to'garakda qatnashish va hokazolardan iboratdir,” - deydi psixolog olim E.G'oziev.

Bu davrda talabalar xarakterida etuklikka intilish rivojlana borsa ham, lekin bu borada ichki qarama-qarshiliklar ham paydo bo'lib turadi. Talabalarning ba'zilarida loqaydlik, befarqlik xususiyatlari ham paydo bo'ladi. Ana shunday vaziyatda talabalarda bilim olishga qiziqish uyg'otish, o'z-o'zini anglash, faollashish kabi xislatlarni paydo qilish muhim. Lekin bu jarayon juda murakkabligi bilan ajralib tursa-da, eng muhim xislatlar: tashabbuskorlik, mustaqillik, zukkolik, tirishqoqlik, bilim olishga chanqoqlik kabi sifatarni tarkib toptirish o'ta zarur.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan intellektual salohiyatga ega, jismonan sog'lom, axloqan pok, ma'naviy etuk harbiy mutaxassislar tayyorlashni kun tartibiga qo'yimoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki bularni amalga oshirish uchun talabalarda birinchidan, bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, ikkinchidan, nazariy va amaliy tayyorgarlik natijasida intellektual salohiyatni rivojlantirishga psixologik tayyorlash. Psixologik tayyorgarlik – bu talabalarni psixologik-pedagogik sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayoni. Psixologik sifatlar talabalarni harbiy jarayonga ma'naviy, ruhiy tomondan tayyorlaydi, ongli faoliyat yuritishga yo'llaydi. Chunki talaba aynan psixik jarayonlar hamda shaxsning sifat o'zgarishlari takomillashib borishi bilan yuzaga chiqadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda o'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-son Qarori.

2.5111500 - Chaqiriqqacha harbiy ta'lim bakalavriat ta'lim yo‘nalishining malaka talablari. 2018 y.

3. Sadriddinov B. Nur kal'asi polvonlari. Najot gazetasi. 2008. 6 mart.

4. G‘oziev E. Psixologiya. Yosh davrlari psixologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1994.